



JAMOL AL-QARSHIYNING HAYOTI VA IJODI

Xodjaliyev Yodgorjon Abdurasulovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti

Annotatsiya: *ushbu tezisda XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida yashagan olim Jamol al-Qarshiyning hayoti va yozgan asarlari, asarlarida keltirilgan tarixiy va xronologik ma'lumotlarning qimmatli ekanligi to'g'risda ilmiy tahlillar olib borilgan.*

Kalit so'zlar: *Mulhaqot, chig'atoy xonlari, qoraxoniylar, Sharqiy Turkiston.*

Jamol al-Qarshiy hijriy 628-yilda, milodiy 1230-yilda hozirgi Olmaliq shahri yaqinida tavallud topgan. Otasi Bolasog'un shahridan bo'lib, hofizi Qur'on bo'lgan. Onasi esa asli Marvlik bo'lib, aslzodalar oilasiga mansublardan edi. Jamol al-Qarshiy birinchi ta'limini Zahiriddin Ashraf ibn Najib al-Kosoniydan oldi. Keyinroq esa Jamol al-Qarshiy "Mulhaqot as-suroh" asarida o'zining olim bo'lib tanilishida Badriddin Muhammad al-Farohiyning xizmatlari katta bo'lganligini keltirib o'tadi. So'ngra Tug'rul Xon unvoni bilan sulolaga asos solgan Buzarning o'g'li Sug'nak Teginning iltifotiga sazovor bo'ldi va Sug'nakning o'g'li Ilbutarga va Jo'chining qizi bo'lgan mo'g'ul malikasi Bulgan Bikiga ustoz qilib tayinlanadi. Podshoh devonida Sadr Burhoddin tomonidan unga lavozim tayin qilinib, unga Qarshiy degan taxallus beriladi.

Jamol al-Qarshiy hijriy 662-yilda, milodiy 1263-yilda Qashqarga surgun qilinadi. Surgunda yurgan paytlarida Sadr Kamoliddin bilan tanishib, uning ehtiromiga sazovor bo'ladi. Shundan so'ng u 1303-yilgacha O'rta Osiyoning muhim shaharlarida bo'lib, o'z davrning ko'plab allomalari, shayxlari bilan uchrashadi. Bu sayohatlar uning mashhur «Mulhaqot» asarini tayyorlashda foydali bo'lgan.

Darhaqiqat, 1273-yilda Shoshdan (Toshkent) Quyi Sayhun qabilalariga borib, Barchkend va Chand shaharlarini ziyorat qilgan Jamol al-Qarshiy Husomiddin Homid ibn Osim al-Barchinli (Barchiniy, Barchkendiy) ismli fiqh olimining asarlarini tadqiq qilish imkoniga ega bo'ldi va "Mulhaqot" da bu asarlar haqida ma'lumot berdi.

Jamol al-Qarshiy vafot etgan sana ma'lum bo'lmasa-da, "Mulhaqot" asarining o'sha davrdagi xon Chag'atoyxon Kayduning taxtga o'tirgan o'g'li Chaparning dastlabki yillarida tugallanganligi uning hijriy 702(1303) yildan keyin ko'p yashamaganligini ko'rsatadi.

Qarshiy nisbasi (mo'g'ulcha qarshi so'zi saroy degan ma'noni beradi, ya'ni saroyga oid) Olmaliqdagi hukmdorlar bilan aloqalari tufayli unga berilgan va bu berilgan nisbaning Quraysh qabilasi bilan aloqasi yo'q.

Jamol al-Qarshiyning yozgan asarlariga to'xtaladigan bo'lsak, uning asosiy ikkita asari bor, birinchisi "As-suroh min as-sihoh"dir, Jamol al-Qarshiy bu asarini





1282-yilda yozgan bo'lib, Abu-Nasr al-Javhariyning "As-Sihoh" lug'ati asosida yaratilgan. Asarda arabcha lug'atdagi har bir so'zning forscha muqobili berilgan.

Ikkinchi mashhur asari "Al-mulhaqot as-surah"dir, XIV asr boshida yozilgan bu asar yuqoridagi lug'atning qo'shimcha sharhi bo'lib, Chig'atoy ulusi mavjudligining dastlabki yillari haqidagi muhim manbadir. Rus olimi Bartold tomonidan Sankt Peterburgda 1898-yilda chop etilgan "Mo'g'ullar davridagi Turkiston" asarining birinchi jildida mazkur asarning bir qismi chop etilgan. Asarda Turkistonda barpo etilgan davlatlar, ayniqsa, qoraxoniylar va chig'atoy xonlari haqida qimmatli ma'lumotlar bor, shuningdek, asarda mashhur shayx va ulamolalar ham tilga olinadi. Keltirilganlar asosan rivoyatlarga o'xshash bo'lsa-da, ba'zida tarixiy va xronologik ma'lumotlarni topish mumkin. Ayniqsa, asardagi adibning zamondosh shayx va ulamolari haqidagi rivoyatlari bu davr ma'rifiy hayoti nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Bartoldning fikricha, asardagi arab-fors va turk tillarining vaqti-vaqti bilan qiyoslanishi shu paytgacha olingan ma'lumotlar doirasida solishtirishning dastlabki namunalari sifatida e'tiborni tortadi. Mehmet Fuad Ko'prulu esa mazkur asarni Sharqiy Turkistonda qoraxoniylar davrida islom va adabiyot fanlari rivojlanganining muhim dalili sifatida qabul qiladi. Jamol al-Qarshiy bu asarida o'zi borgan joylarning geografiyasi va mintaqa aholisining etnik tuzilishi haqida ham ma'lumot beradi. Jumladan, u ba'zi shaharlarni, jumladan, Sig'noqni turkman yurtlari (biladut-tarokima) deb ataydi va Barchkend turkmanlarning vatani ekanligini alohida ta'kidlaydi. Tarixchi olim Faruk Sumer esa Jamol al-Qarshiyning asarida berilgan Quyi Sayhun hududlari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, mazkur mintaqada turkmanlarning Saljuqiylar haqidagi xotiralarini saqlab qolgan bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda Jamol al-Qarshiy o'z asarlarida qimmatli tarixiy ma'lumotlarni qoldirganligi bilan hozir kunda uning asarlarini ilmiy tomondan o'rganish fanning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jackson P. The Dissolution of the Mongol Empire // Central Asiatic Journal. Vol. 22. 1978.
2. Абусейтова М. Х. (сост.) История Казахстана в персидских источниках. Том 1. Джамал ал-Карши. Алматы: Дайк-Пресс, 2005.
3. H. F. Hoffman, Turkish Literature, A Bio-Bibliographical Survey, Utrecht 1969, III/1-3.
4. Faruk Sümer, Oğuzlar: Türkmenler, İstanbul 1980.
5. <https://islamansiklopedisi.org.tr/cemal-i-karsi>
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jamol_Qarshi

